



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
<b>Vaxtohonova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
<b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejapov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

tovarning sotilishining o‘zgarishi yoki joriy yil mobaynida reklama tadbirlarini amalga oshirgunga qadar va amalga oshirilgandan keyingi tovar aylanmasini taqqoslash yo‘li usuli bilan aniqlanadi.

Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini oshirishda quyidagi takliflarni beramiz.

1. Reklama samaradorligini baholashda kompleks indikatorlar tizimini joriy qilish
2. Sanoatga moslashtirilgan reklama strategiyalarini ishlab chiqish
3. Raqamli reklama kanallariga o‘tishni kuchaytirish
4. Reklama natijalarini real vaqt asosida monitoring qilish
5. Sanoat mahsulotlari uchun “mijozlarni o‘rganish modeli”ni joriy etish
6. Reklama byudjetini optimallashtirish metodikasini ishlab chiqish
7. Korxonada ichida marketing va reklama bo‘limini rivojlantirish
8. Reklama samaradorligini aniqlashning yagona metodologiyasini ishlab chiqish.

Ushbu takliflar sanoat korxonalarida uchun reklama samaradorligini aniqroq o‘lchash, marketing strategiyasini rivojlantirish va natijadorlikni oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Xolmatova. Reklama xizmatlari va uning sub’yektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali (2024)
2. Michael Hutt, Thomas Speh. Industrial Marketing Management (2022)
3. Frederick E. Webster Jr. Industrial Marketing Strategy (2020)
4. [www.marketing.ru](http://www.marketing.ru)

**UDK: 658.8; 330.342; 005.21**

### KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH UCHUN TANLANGAN OMILLAR

### ВЫБРАННЫЕ ФАКТОРЫ ДЛЯ ОЦЕНКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

### SELECTED FACTORS FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF ENTERPRISES

**Axunov Muhammadamin Abduvasitovich**

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda qo‘llaniladigan asosiy omillar tahlil qilinadi. Unda ichki va tashqi muhit ko‘rsatkichlari, innovatsion salohiyat, moliyaviy barqarorlik, marketing strategiyasi, mahsulot sifati va boshqaruv samaradorligining raqobatbardoshlikka ta’siri yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy baholash usullari va ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Raqobatbardoshlik, korxonada, baholash omillari, innovatsion salohiyat, moliyaviy barqarorlik, marketing strategiyasi, boshqaruv.

В данной статье анализируются основные факторы, применяемые для оценки конкурентоспособности предприятий. Рассматривается влияние показателей внутренней и внешней среды, инновационного потенциала, финансовой устойчивости, маркетинговой стратегии, качества продукции и эффективности управления на уровень конкурентоспособности. Также изучаются современные методы оценки и возможности их практического применения.

**Ключевые слова:** конкурентоспособность, предприятие, факторы оценки, инновационный потенциал, финансовая устойчивость, маркетинговая стратегия, управление.

This article analyzes the main factors used to assess the competitiveness of enterprises. It examines the impact of internal and external environment indicators, innovation potential, financial stability, marketing strategy, product quality, and management efficiency on overall competitiveness. Additionally, modern assessment methods and their practical application possibilities are explored.

**Keywords:** competitiveness, enterprise, assessment factors, innovation potential, financial stability, marketing strategy, management.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida etakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta‘minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, amalda texnologik jihatdan yangilanmoqda.

Mamlakatimizda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish bo‘yicha o‘z vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar ham amaliy samarasini bermoqda. O‘tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o‘sish hajmi sezilarli darajada ortib, ichki bozorning barqaror ta‘minlanishiga, import hajmining qisqarishiga va mahalliy korxonalar faoliyatining jonlanishiga erishildi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi omillar umumiy dinamikaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Bozor iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarida erkin raqobatni shakllantirish va aholi turmush farovonligini taminlashda raqobatbardoshlik omillarini o‘rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

2025-yilning 1-iyul holatiga respublikada taxminan 59 000 sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda.

2025-yil yanvar–iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 488,5 trillion so‘mga teng bo‘lgan; bu 2024-yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksida 106,6 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–iyul oylarida sanoat mahsulotlari qiymati 575,6 trillion so‘mga yetgan; shuningdek fizik hajm indeksi 106,5 % ko‘rsatgan.

Raqobatbardoshlik tushunchasini turli darajada, jumladan global miqyosda, milliy darajada va korxonalar darajasida ko‘rib chiqish mumkin. Raqobatbardoshlik masalalarini biz milliy va aniq bir korxonalar darajasida ko‘rib chiqishni lozim deb topdik.[1]

Raqobatbardoshlikka ta‘sir etuvchi omillar ikki guruxga bo‘linadi: tashqi va ichki omillar. Tashqi omillar jumlasiga:

- siyosiy va iqtisodiy shart – sharoitlar;
- raqobatbardoshlikka bevosita aloqador qonunchilik va me‘yoriy – xuquqiy aktlar;
- geografik joylashuvi;
- demografik vaziyat;
- mamlakatda ta‘limning rivojlanish darajasi;
- ijtimoiy – iqtisodiy va fan texnika taraqqiyoti darajasi;
- rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi.

Ichki omillarga:

- menejment darajasi;
- xodimlar malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- korxonada foydalaniladigan boshqaruv uslublari;
- korxonada foydalaniladigan texnika va texnologiyalar;
- marketing siyosati;

Biznesni rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni to‘g‘ri aniqlash va baholash, eng kam xarajatlar bilan belgilangan mukammallashishlarga erishish xamda samaradorlikni oshirishni imkonini beradi.

**Sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni baholashda hisobga olinadigan asosiy ko‘rsatkich va me‘zonlar**

№	Raqobatbardoshlikni baholashda hisobga olinadigan ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichni baholashda qo‘llaniladigan me‘zonlar
1	Texnik – texnologik	Ishlab chiqarish vositalarining xolati, mehnat qurollarining sifati, texnologik jarayonlarning, mehnat va ishlab chiqarishning mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi va fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishi.
2	Moliyaviy – iqtisodiy	Joriy xarajatlar darajasi, moliya mablag‘larini korxonaning zarur xarajatlariga foizda taqsimlanishi, ishlab chiqarish vositalaridanfoydalanish samaradorligi, korxonaning moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarishni samaradorligi, moliya tashkilotlari bilan munosabatlar tasnifi.
3	Tashkiliy boshqaruv	Boshqaruv tuzulmasi, ishlab chiqarishni tashkil etilishining shakllari, korxonaning ishlab chiqarish tuzilishi, va texnologik rejimlarni optimallashtirish darajasi, mehnatni tashkil etish, xodimlar malakasi.
4	Ijtimoiy – psixologik	Mehnat sharoitlarining axvoli va ishlab chiqarishning tashkiliy madaniyati, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish tizimi, ijtimoiy infratuzulmaning mavjudligi va xolati.
5	Bozor iqtisodiyotiga tegishli.	Resurslar va yangi texnologiyalar bozoriga yo‘l berish, maxsulot eksporti, maxsulotning taqsimlanishi, kanallari, sotishni rag‘batlantirish tizim, sotuvdan keyingi xizmat ko‘rsatish

Samaradorlikni ichki omillarini aniqlash va baholash ko‘pincha, «Aqliy xujum» deb ataladigan jamoaning vaziyatini muxokama qilish jarayonida amalga oshiriladi. Bunday muxokamada ishtirok etish uchun biznes egalari, menejerlar va korxonalar ishchilari taklif etiladi. Korxonalar faoliyati raqobatbardoshligini eng to‘liq baholashga imkon beruvchi beshta gurux ko‘rsatkichlarini yoki me‘zonlardan foydalaniladi.

Korxonalar darajasida raqobatbardoshlik masalalarini muxokama qilib biz ko‘proq biznes egasiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan ichki omillar muammo va masalalarni taxliligiga to‘xtab o‘tamiz. Ular o‘z ichiga xodimlar, ularni to‘g‘ri tanlash, ishini tashkil etish va rag‘batlantirish, ishlab chiqarilayotgan maxsulot va uning sifati, marketing, moliya boshqaruvi va boshqalarni qamrab oladi. Ayonki aynan shu soxalarda raqobatbardoshlikni oshirish mumkin bo‘lgan tezkor takomillashtirishlarni amalga oshirish mumkin. Undan tashqari yuqori samara yo‘lidagi ma‘lum va yaqqol to‘siqlarni bartaraf etish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun uning ichki rezervlaridan foydalanish orqali qisqa vaqt ichida natijaga erishish mumkin.

Ko‘pgina korxonalarda maqsadli doimiy asosda ishlaydigan, ilmiy asoslangan, korxonalar raqobatbardoshligini baholashning kompleks tizimini mavjud emasligi raqobatbardoshlikni rivojlanishini sekinlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Korxonalar raxbarlari va menejerlari maqsadlar va ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liq straregik boshqaruv tamoyillarini qo‘llamaydi va ular umumiy faoliyatni mahsuldorligiga salbiy ta‘sir etmoqda.

Bugungi kunda sanoat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishga to‘siq bo‘ladigan ichki muammolarga quyidagilar kiradi:

- ✓ xodimlarning kasbiy tayyorgarligini etarli emasligi;
- ✓ korxonalarda kasbiy malaka oshirish uchun bazaning yo‘qligi;

- ✓ ishlab chiqarishning texnologik darajasining pastligi;
- ✓ yangi texnologiyalar to‘g‘risida axborot etishmovchiligi;
- ✓ sotuv bozorlari xaqida axborotning mutlaqo yo‘qligi;
- ✓ tovarlarni bozorga o‘tkazish tizimini past rivojlanganligi;
- ✓ eskirib qolgan uskunalarning sonining ko‘pligi;
- ✓ xom ashyo sifatining pastligi, yani uni etkazib berishdagi uzilishlar;
- ✓ iqtisodiyotni boshqarishda ma‘muriy usullarning saqlanayotganligi, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning faoliyatiga davlat xokimiyati organlari tomonidan aralashuvning mavjudligi;
- ✓ nisbatan soliq yuki va uning teng taqsimlanmasligi;
- ✓ bank tizimini dallollik funksiyasini samarasizligi va faol emasligi;
- ✓ tashqi savdo faoliyatini liberallashtirish xamda eksport potentsialidan etarli darajada foydalanmaslik.[2]

Shundan kelib chiqqan xolda maxalliy ishlab chiqaruvchilar o‘z raqobatbardoshligini oshirishda duch kelayotgan muammolarni engish uchun quyidagi masalalarni o‘z vaqtida xal etish dolzarb bo‘lib qolmoqda:

1. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning me‘yoriy – xuquqiy bazasini mukammallashtirish xamda qonunlarni ijro etilishini ta‘minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish.

2. Ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish va biznes bilan shug‘ullanish uchun teng sharoitlar barpo etish, tashqi savdoni liberallashtirish, xususiylashtirish va monopoliyadan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish orqali raqobat muxitini rivojlantirish choralari tadbiriq etish.

3. Kichik biznes korxonalariga kredit resurslariga yo‘lberish tizimini yaxshilash, bunga monetar siyosatni mukammallashtirish va moliya sektoridagi chuqurlashtirishga ko‘maklashish lozim.

4. Eksportga, jumladan kichik biznes mahsulotlarini xam o‘tkazish infrastrukturasi barpo etish, shuning ichida maxalliy kompaniyalarni xorijda savdo vakolatxonalarini ochish tartibini soddalashtirish choralari ko‘rish.

Xar bir eksportyor o‘ziga zarur bo‘lgan axborotni olish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun xududlarda axborot maslaxat xizmatlarini mustaxkamlash zarur.

Korxonalar raqobatbardoshligini baholashda quyidagi qo‘shimcha omillarni kiritish taklif etiladi:

1. raqamlashtirish darajasi (IT texnologiyalar, avtomatlashtirish);
2. ekologik barqarorlik va “yashil” ishlab chiqarish;
3. inson resurslari sifati va xodimlar malakasi;
4. mijozlar qoniqish darajasi va brend obro‘si;
5. logistika samaradorligi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar faoliyati samarali tashkil etish va har tamonlama rivojlangan ishlab chiqarish kuchlarini hamda ishlab chiqarish resurslarini o‘zaro mutonosib holda ta‘minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy e‘tibor korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish hamda ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiya qilish asosida ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni takomillashtirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda xar qanday korxonalar va muassalar o‘z oldilariga qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishish yo‘lida mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanishga bor kuch va e‘tiborlarini qaratislari zarur. Bu esa o‘z navbatida tobora jadallashib borayotgan bozor sharoitlariga, raqobat kurashi ta‘sirilariga iqtisodiy – ijtimoiy jixatdan talofatsiz moslasha oladigan faoliyatni yuritishni talab qiladi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, raqobatbardoshlilik omillari ham muhim o‘ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o‘rinda, yangi faoliyat turlarini kiritish, mavjud faoliyat turlarini takomillashtirish, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish – kontsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Ushbu maqsadga erishish yo‘lida har qanday korxonalar va tashkilotlar muntazam ravishda faoliyatga ta’sir etuvchi barcha omillarni o‘rganishi, tahlil qilishi va ularning natijasida raqobat afzalliklarini ta’minlaydigan faoliyat yo‘nalishlarini joriy etishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Nazarov S. – Raqobatbardoshlikning nazariy asoslari va amaliyoti. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2022.
2. Islomov A. – “O‘zbekiston sanoatining raqobatbardoshligini oshirish omillari”. Iqtisodiyot va Innovatsiyalar, 2021.

**УДК: 331.5**

**“АЁЛЛАР ДАФТАРИ” МАҲАЛЛАБАЙ ТИЗИМИ - АЁЛЛАР БАНДЛИГИ ВА  
ФАРОВОНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА**

**СИСТЕМА МАХАЛЛИ “ЖЕНСКОГО РЕЕСТРА” - КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
ЗАНЯТОСТИ И БЛАГОПОЛУЧИЯ ЖЕНЩИН.**

**WOMEN’S REGISTER: THE MAHALLA BAYT SYSTEM AS A MEANS OF ENSURING  
WOMEN’S EMPLOYMENT AND WELL –BEING.**

**Исраилова Дилфуза Каримовна** “University of economics and pedagogy” NOTM  
Иқтисодиёт кафедраси профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

**Аннотация**

Мақолада бугунги кунда жамиятда аёллар бандлигини таъминлашда янгича ёндашувларни қўллаш, бу борада маҳаллабай тизимдан самарали фойдаланиш билан боғлиқ масалалар ёритилган.

**Калит сўзлар.** Аёлларнинг иш билан бандлиги, аёлларнинг меҳнат бозоридаги иштирокини таъминлаш, маҳаллабай тизим, тадбиркор аёл, янги иш ўринларини ташкил этиш.

В статье рассматриваются вопросы использования новых подходов к обеспечению занятости женщин в современном обществе, а также вопросы, связанные с эффективным использованием системы махалли в этом плане.

**Ключевые слова:** Занятость женщин, обеспечение участия женщин на рынке труда, система махалли, женщина- предприниматель, создание новых рабочих мест.

The article examines the use of new approaches to ensuring women’s employment in modern society, as well as issues related to the effective use of the mahalla system in this regard.

**Keywords.** Women’s employment, ensuring women’s participation in the labor market, mahalla system, female entrepreneur, creation of new jobs.

Аёллар муаммоларини тизимли ҳал этиш, уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш орқали турмуш даражасини яхшилаш масаласи давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланмоқда. Ўзбекистон Республикасининг Янги тараққиёт стратегиясида “...мамлакатда янги иш ўринлари яратиш, аҳоли даромадларини ошириш ва шу орқали 2026 йил якунига қадар камбағалликни камида 2 бараварга қисқартириш, норасмий ишлаётган 2,5 миллион нафар фуқаронинг бандлигини легаллаштиришга ёрдам бериш орқали уларда ижтимоий кафолат ва имтиёزلардан тўлиқ фойдаланиш имкониятини яратиш, аёллар ўртасидаги ишсизлик даражасини 2 баравар камайтириш, 750 мингдан зиёд ишсиз хотин-қизларни давлат ҳисобидан касб-хунарга ўқитиш, иш билан банд бўлмаган хотин-қизларни